

uchun to'lov summasi aniqlanadi. Belgilangan shakldagi hisobot «Ta'minotchi»ga har oyning 22-sanasigacha muddatda beriladi.

3.6 Hisob-kitob elektr hisoblagich bo'linish chegarisida o'rnatilmagan taqdirda elektr tarmog'ining balans bo'yicha tegishlilik chegarisida elektr hisoblagich o'rnatilgan joygacha elektr energiyasi yo'qotilishi miqdori «Iste'molchi» bilan birgalikda hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi va to'lov uchun «Iste'molchi»ga berilgan foydali elektr energiyasi bilan jamlanadi.

3.7 Taqdim etilgan belgilangan shakldagi hisobotga asosan «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ga hisob-fakturaga yozib beradi. Har xil tarif guruhiga tegishli bir necha obyektlarga esa iste'molchilar bilan hisob-kitoblar har bir tarif guruhiga o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi, lekin shuning bilan birga har bir obyekt bo'yicha bo'lib ko'rsatilgan bitta hisob-faktura yozib beriladi. Qisman (to'liq emas) haq to'langanda «Iste'molchi» to'lov hujjatida qaysi tarif guruhlari bo'yicha to'lov berishni navbatda amalga oshirilayotganini ko'rsatishi kerak, aks holda «Ta'minotchi» tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega. Elektr energiyasi iste'moli haqida hisobot taqdim etilmaganda elektr ta'minoti tashkiloti shartnomaviy elektr iste'moli hajmi bo'yicha qaytarilmasdan avans to'lovi tariqasida hisobga olinadi.

3.8 «Iste'molchi» tomonidan tegishli oyga yetkazib berilishi ko'zda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining 50% dan kam bo'lmagan miqdorda oldindan to'lov amalga oshirilganda elektr energiyasi har oyda yetkazib beriladi. Kichik va o'rta biznes vakillari, kichik motorli, xususiylar tadbirkorlar elektr energiyasi qiymatining 100% miqdorda oldindan to'lov amalga oshirilishi kerak. Yakuniy hisob-kitob esa 3-kun davomida (yakuniy hisob-kitob muddati ko'rsatilsin, lekin 30 kundan oshmasin) amalga oshiriladi. «Iste'molchi»da elektr energiyasi uchun 3 kundan ortik (muddati yuqorida ko'rsatilgan) muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lganda, avans to'lovi tariqasida to'langan mablag'lar muddati o'tgan qarzdorlikni bartaraf etishga yunaltiladi va avans to'lov tariqasida hisobga olinmaydi. «Iste'molchi» bir necha tarif guruhga ega bo'lsa, u oldindan to'lov hujjatida tarif guruhi bo'yicha elektr energiyasi summasi yoki miqdorini ko'rsatish kerak, aks holda «Ta'minotchi» tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

3.9 Uzi-kesil hisob-kitob ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilmagan taqdirda «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ga elektr enregiya berishni to'xtatadi. (shartnomaning 5.5bandida ko'rsatilgan «Iste'molchi»lar bundan mustasno) Bir vaqtning o'zida «Ta'minotchi» elektr energiyasi yetkazib berish dalolatnomasi asosida amalga oshirilgan to'lovlar summasini chiqarib tashlagan holda xizmat ko'rsatuvchi bank orqali hisobot oyida yetkazib berilgan elektr energiyasi summasiga aksent bilan to'lov talabnomasi beradi.

4.ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNI QABUL QILIB OLISH TARTIBI.

4.1 Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2 Elektr energiyasini yetkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlar va hajmlar mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. «Ta'minotchi» buyurtmanomalarni ro'yhatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

4.3 «Iste'molchi» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoki undagi elektr energiyasini yetkazib berish miqdori va sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda «Ta'minotchi»ni buyurtmanomada kursatilgan sana boshlanishdan joriy oy tamom bo'lishigacha hamda 10 kun oldin xabar qiladi.

5. ELEKTR ENERGIYASI BERISHNI TO'XTATISH VA UZIB QO'YISH TARTIBI.

5.1 Elektr energiyasi berishdan uzilishlarga, elektr energiyasini berishni to'xtatish yoki cheklashga tomonlar kelishuviga muvofiq yo'l qo'yiladi.